
Konstitutsiyaviy sud sudyalarining vakolat muddati o'zgardi

Prezident tomonidan imzolangan Qonun bilan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud referendumga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida **xulosa** beradi.

Konstitutsiyaviy sud mazkur toifadagi masalalar bo'yicha tegishli hujjatlar olingan kundan e'tiboran **15 kundan** kechiktirmay qaror qabul qiladi.

Shuningdek, kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz **10 yillik** muddatga saylanadi (*ilgari birinchi marta 5 yilga, ikkinchi marta 10 yilga saylangan*).

Shuhrat Mirzakirov

Jinoyat ishlari bo'yicha O'zbekiston tuman sudining raisi

2024-02-01 15:08:16